"YALDO KECHASI" ASARIDAGI OZODBEK OBRAZI TAHLILI

Mansurova Bog'dagul Qo'chqorovna
Osiyo texnologiyalar Universiteti 1-bosqich magistranti
bogdagulmansurova@gmail.com

imrconf.com

"Dunyo yer yuzidagi qudratli saltanatlar o'rtasida allaqachon taqsim qilib bo'lingan. Bul taqsimotda biz- Turkiston kabi nochor va zaif o'lkalarning ulushi yp'q darajadadur. .....Agarki biz millat, davlat o'laroq dunyo xaritasidan butkul o'chib ketsak ham bul fojia jahon xojalarini chivin chaqqan kabi seskantirmas.Bul hol shunday ekan, biz o'zimizni jahannam otashig'a otmaslig'imiz, aksuncha, elimiz, yurtimizni qanday qilib bo'lsa-da, yo'q bo'lib ketishdan asarab qolish haqida qayg'urishimiz kerak. Turkiston yana bir muxtoriyat qirg'inini ko'tara olmas". Ozodbek tilidan aytilgan bu so'zlar asrlar o'tsada o'z qiymatini yo'qotmagan. Asardagi Ozodbek obraziga tavsif beradigan bo'lsak, Ozodbek asarning bosh g'oyasini ochib berishda katta ahamiyatga ega obraz hisoblanadi. Ozodbek otasi vafotidan so'ng sovet yetimxonasiga beriladi va u yerda sovet ruhida tarbiyalanadi. Voyaga yetgach esa sho'ro hukumatiga ishga kiradi va ukasi Odilbek bilan ham "chaplashib" qoladi. Shu o'rinda asarning 358-betidagi "Og'a-ini g'animlar" bobidagi aka-uka suhbatidan parcha kelturmoqchi edim: Onasi Zumradbibi vafotidan so'ng og'a-ini 2 yil deganda bir-biri bilan uchrashdi. Odilbek har doimgidek sho'ro hukumatidan norozi, Ozodbek esa sho'ro hukumatining sodiq kishisi. Ukasini ham sho'ro tomoniga o'tishga da'vat qiladi. Ozodbek biladiki, endi kuch yolg'iz sho'roda ekanligini ta'kidlaydi. " - Sen xususiy hollarg'a umumiy tus berma, - dedi Ozodbek. - Bolshavoylarni noto'g'ri ishlardan qaytarmoq uchun ham firqa safida mudulmonlar bo'lmog'i, bo'lg'anda ham ko'p bo'lmog'i kerak.Tushun, sho'ro siyosati bu yakkahokimlik siyosati emas. Bundag'i barcha ishlar

kengash va maslahat bilan, ko'pchilikning ovozi irodasi bilan hal bo'lur. Nega anglamaysan, hozirg'i kunda Turkiston siyosati maydonida sho'rodan bo'lak hal qiladirg'an kuch yo'q. Biz yo shular bilan murosayu madora qilib o'z insoniy haqlarimizni talab va muhofaza qilishimiz yoki tarix ayvonidan supurilib el, millat o'laroq butunlay mahv bo'lishimiz mumkin. Boshqa yo'l yo'q qarshimizda." Ko'rinib turganidek Ozodbek asarda salbiy qahramon emas. Sho'ro hukumatiga ko'r-ko'rona qo'shilgan ham emas. Ular ongli ravishda yuqorida ukasiga aytgan gaplari so'zimizning isbotidir. U otasidan qolgan oltinlarni ham o'ziga sarflamaydi. Avval Iskobildag'i yetimonaga topshirmoqchi bo'ladi, keyin esa yetimxonada tanishib qolgan va aka-uka tutingan Ibrohim Afzalni o'z hisobidan Olmoniyaga o'qishga yuboradi. "Turkuston uyg'onsun" bobida (413-betda) Ozodbek tomonidan Olmoniyaga o'qishga yuborilgan Ibrohimdan Ozodbek nomiga xat keladi va Ibrohim xatda Olmoniyaliklarning ularga qilgan muomalalari, turkistonlik talabalarni qanday kutib olganliklarini bayon qiladi va shu qatorda yuragida anduh bilan Turkistonni Amriqo va Ovrupo davlatlari bilan solishtirib Turkistonning motamxona ekanligini aytadi. Yevropa davlatlarining texnikasi va sanoatining rivojlanganligini keltirib o'tadi. Yevropa ta'lim tizimini ham batafsil izohlaydi.

Asardagi " Qon sachragan lolalar" bobida esa Namanganga yo'l olgan sho'rolar poezdiga " bosmachilar" hujum qiladi. Va mana shu jangda aka-ukalar bir-biriga qarshi jangga kiradilar. Sho'rolar tomonida Ozodbek, bosmachilar tarkibida esa Odilbek. Ozodbek ukasini tanib qolgach, qulog'iga otishma ovozlari kirmay qo'yadi, butun fikr-u xayoli ukasida edi, " o'ldimi, tirikmi?" Ich -ichidan tangriga yolvorib iltijo qiladi. " Yo Robbim, o'zing panohingda asra, Yo, Parvardigor, o'zing rahm qil!" Ozodbek halok bo'lgan bosmachi asakarlari orasidan o'z ukasi jasadini qidiradi va topa olmaydi. Allohga shukronalar keltiradi. Hayriyat, tirik ekan deb pichirlaydi. Asar so'ngida esa Ozodbek sho'ro dushmani sifatida qamoqqa olinadi va nega qamalganini tushunolmasdan halok bo'ladi. " Mahbuslarning eng gunohkori, eng haqsizi

imrconf.com

sifatida har qanday huquqdan mahrum etilib, odinochkada saqlanadi. Yaldo kechasi tun yarmidan oqqanida ularni so'nggi bor safga tizib tashqarig'a olib chiqadilar. Ozodbek girdo-girdiga alanglab, xira yonib turgan iliktir chiroqlari shu'lasida safning bosh tomonida cho'loqlanib arang qadam bosayotgan Begaliyufni, undan besh-olti odim orqada esa ikki ikki nafar soqchi ikki qo'lidan tutgancha sudrab borayotgan Vasilyufni, yana bir to'p tanish odamlarni ko'rdi. Aft-basharasi kaltak zarbi tufayli momataloq bo'lib ketganidan tanib bo'lmas darajaga yetkan shoir Jo'shqin yon atrofga ma'nosiz-hissiz boqardi.....Askar kiprik qoqmay bexato o'q uzdi. Miltiqning gumburlagan tovushi barobar Ozodbekning bo'g'zidan so'nggi nido otilib chiqdi." Alvido, Turkiston!".

imrconf.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva G. Xayriddin Sulton ijodining o'rganilishi. Tezis. Europian scince international conferense. February 2023.

2. Mansurova B. Xayriddin Sulton Yaldo kechasi asarining g'oyaviy xususiyatlari. Global economic reviev journal, February 2026. ISSN(E) 2980-5287.

3. Mirzayev A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. Toshkent: Universitet -2023. 298-b.

4. Rajabov M. Zamonaviy o'zbek nasrida psixologik tahlil masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2022. N4.

5. Sultonov X. Yaldo kechasi. Toshkent: Xaybar 25. Toshkent: 2025.

6. Safarov X. Yurt qayg'usi haqidagi asar-Yaldo kechasi tajallisi. Filologiya fanlari falsafa doktori.Maqola.